

ILMIY VA BADIY MANBALARDA BERUNIY OBRAZI (BAXTIYOR TO‘RAYEVNING “BERUNIY – INSONIYATNING BUYUK MUTAFAKKIRI” ASARI VA ISAJON SULTONNING “ABU RAYHON BERUNIY” ROMANI ASOSIDA)

Fotima Baxriddinova ISMOILOVA

tayanch doktorant

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O‘zbekiston

fotimaismoilova813gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniy obrazi Baxtiyor To‘rayevning “Beruniy – insoniyatning buyuk mutafakkiri” asari va yozuvchi Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani asosida tahlil etiladi.

Tayanch so‘zlar: “Alibarona”, “Dorul-hikma”, “Hindiston”, 1050 yillik, geodeziya, mineralogiya, 160 dan ortiq asar.

ОБРАЗ БЕРУНИ В НАУЧНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ БАХТИЯРА ТУРАЕВА «БЕРУНИ – ВЕЛИКИЙ МЫСЛИТЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА» И РОМАНА ИСАДЖОНА СУЛТАНА «АБУ РАЙХАН БЕРУНИ»)

Фатима Бахриддиновна ИСМОИЛОВА

базовый докторант

Самаркандский Государственный Университет

Имени Шафофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

fotimaismoilova813gmail.com

Аннотация

В данной статье анализируется образ Абу Райхана Беруни на основе произведения Бахтияра Тураева «Беруни – великий мыслитель человечества» и романа «Абу Райхан Беруни» писателя Исаджона Султана.

Ключевые слова: «Алибарона», «Дар аль-Хикма», «Индия», 1050 лет, геодезия, минералогия, более 160 трудов.

Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romani so‘zboshisining muallifi, AQSHning Shimoliy Karolina universiteti professori, xalqaro Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjar ta’kidlaganidek, “Abu Rayhon Beruniy yer yuzining diametrini bugungi o‘lchovlarga yaqin bir tarzda hisoblagan va geodeziya ilmiga asos solgan, trigonometriyaning astronomiyadan ajratilishi kerakligini ilgari surgan va trigonometrik funksiyalarni hisoblagan, Nyutondan avval yerning tortish kuchidan xabar bergan, Galileydan oldin yerning shar shaklida ekanligini

aniqlagan, hayoti mobaynida geometriya, trigonometriya, geodeziya, mideralogiya, tibbiyot va tarixga oid 150 dan ortiq asar yozib qoldirgan buyuk turkiy mutafakkirdir” [4;3].

Darhaqiqat, bugungi kunning ilmiy yangiliklarini, kashfiyotlarini Beruniychalik aniq o‘lchagan olim yo‘q. Uni chin ma’noda ensiklopedik ilmiy meros sohibi desak yanglishmaymiz. Abu Rayhon Beruniyning serqirra ijodiy tafakkur boyliklarini ilmiy tahlil qilish keyingi asrlarda boshlandi. Falsafa fanlari doktori, professor B.O.To‘rayev ham o‘zining “Beruniy – insoniyatning buyuk mutafakkiri” kitobida Beruniyning tug‘ilgan joyi va vaqti, Beruniy yashagan davr va muhit, uning ustozlari, Beruniyning fanga qo‘shgan hissasi, shuningdek, Beruniyning boy ilmiy merosi va boshqa qimmatli ma’lumotlarni jamlagan.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy (973–1048). Bu ismning “Abu Rayhon” qismi Rayhonning otasi ekanligini, “Muhammad” mutafakkirning o‘z ismi, “ibn Ahmad” Ahmadning o‘g‘li ekanligini anglatadi. Beruniy nasibasi esa uning taxallusi. O‘rta asr g‘arb olimlari uni “Alibarona” deb atagan [5;11].

“Abu Rayhon” Rayhonning otasi ma’nosida tushunilsa ham, ba’zi manbalarda ta’kidanishicha, Beruniy yoshligidan o‘simliklar dunyosiga juda mehr qo‘ygan, har bir o‘simlikning xususiyatini aytib bera olgan. Shu sababdan ham “rayhonli kishi” nisbasi berilgan bo‘lishi ham mumkin.

Beruniyga yoshligidan Abu Nasr ibn Iroq ustozlik va homiylik qiladi. Uning yonida matematik ilmlar, Evklid geometriyasi va Ptolomeyning astronomik ta’limoti bilan tanishgan. Ibn Iroq shogirdi Beruniyni o‘zgacha iqtidorga sohib ekanligini uning yoshligidan ilg‘aydi, unga doim dastak bo‘ladi, homiylik qiladi. Shuningdek, Beruniy bolaligidan astronomik kuzatishlar olib borgan, hatto yoshligidan astronomik kuzatishlar olib borish uchun asbob ham yasagani tarixda ma’lum [2;273].

Shuni ikkilanmay aytish mumkinki, Beruniy yashagan davr va muhit ham ayni Xorazmda ilm-fan rivojlangan bir davr bo‘lgan, bu ham Beruniyning yaratgan

ilm yoʻlidagi manbalarga poydevor boʻlib xizmat qilgan. Xorazmshoh Maʼmun ham ilm-fanni sevuvchi, ilm egalarini ardoqlovchi shaxs boʻlgan. U Gurganjda “Baytul-hikma” kabi “Dorul-hikma” ga asos soladi va unda eng kuchli bilim egalari jamlanishini istaydi, ularning ilm yoʻlidagi har qanday ehtiyojlari toʻla-toʻlis bajarilishini, tillarda doston boʻlguvchi ilm maskanini bunyod etilishini istaydi va buni uddalaydi ham.

Nihoyat, oradan bir necha oy oʻtib, “Dorul-hikma”ga chorlangan olimlarning asosiy qismi Gurganjga yetib keldi. Ularning har biri olam xazinalariga teng edi. Turfa qiyofa va jussaga ega bu kishilarga qarab, shuncha bilimni hofizasiga qanday jo qilganiga aql lol qolardi [4;127]. Shunday maʼrifat egalarining ichida Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino ham bor edi.

Mahmud Gʻaznaviy bosqin qilib, ilm egalarini Gʻaznaga olib ketguniga qadar bu bilim saltanatida ulkan ishlar amalga oshirildi. Beruniy koʻplab hisob-kitoblar natijasida Yerning aylana shaklda ekanligini ham Galileydan oldin taxmin qilgan.

Beruniy doim Abu Fazl bilan hamrohlikda yurgan. Bir kuni bogʻchada oʻtirganida Beruniy xayolidagi chizmalarni bir taxtaga chizadi...

Oy shakli oʻzgargani yoki u tutilganida Oyning oʻzida biron oʻzgarish roʻy bermaganini bildiradi! – deb xitob qildi u. – Ammo biz Oy tutilgani mahalda uni nimaningdir soyasi tushishiga va u soyaning aylana shaklda ekaniga guvoh boʻlamiz. Oyga Yerning soyasi tushgani aniq. U soyaning aylana shaklda ekanligi esa...

Abu Rayhon mening javobimni kutib, kulimsirab qarab turardi.

Uning soʻzlari xayolimda bir-birini toʻldirib tizila boshladi. “Kullun fi falaki yasbaxun” qavli sayyoralar falakda muallaq suzib yurishlaridan xabar berdi...Oyga Yerning soyasi tushdi... U soyaning aylana shaklda ekanligi esa...Birdaniga ongimda chaqin chaqnaganday boʻldi. Hayajonimdan oʻrnimdan turib ketdim:

– Subhanalloh! Yer...dumaloqmi?

Abu Rayhon javob qilmadi.

Hayajonimni bosolmas edim. Zehnim chaqmoq shiddatidan turli taxminlarni izlay boshladi. Oyga Yerning soyasi tushdi. Bilish va kashf qilishning lazzati vujudimni o‘rab oldi. Yo Alloh! Bu mashaqqatli ishda bunchalar huzur borligi xayolimga ham kelmagan edi [4;135].

Bu hayajonli damlar Abu Rayhon Beruniy va Abu Fazlning Yerning dumaloq shaklda ekanligini kashf qilgandagi holati. Albatta, bu ulkan kashfiyot edi.

Beruniy 1035–1036-yillarda o‘zi yozgan asarlarning ro‘yxatini tuzadi. Bu ro‘yxatda 113 ta asarning nomi bor edi. Asarlardan 70 tasi astronomiya, 20 tasi matematika, 12 tasi geografiya va geodeziya, 3 tasi mineralogiya, 4 tasi kartografiyaga oid edi. Shuningdek, ayrim manbalarda Beruniy 200 dan ortiq asar yozganligi haqida ham ma’lumot bor. Uning har bir asari ensiklopediya kabi qimmatli.

Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanida yozilishicha, Mahmud G‘aznaviy Gurganjni bosib olganidan keyin bir qancha olimlar qatori Beruniyni ham G‘aznaga olib ketadi. Chunki bir necha yil oldin vaziridan Gurganjda ulkan bilimga ega ilm egasi istiqomat qilishini, vaqti kelib, uni o‘zi bilan G‘aznaga olib kelishini aytadi. Shu kun keladi ham. Mahmud G‘aznaviy undan Hindiston tarixiga oid shunday bir asar yozishini istaydiki, undagi hech bir ma’lumot to‘qima yoki yolg‘on bo‘lishini istamaydi. Nega aynan Hindistonni tanlagani sababi esa o‘sha vaqtlar bu davlat katta boyliklarga, katta hududga ega diyor edi. G‘aznaviy uning har bir viloyatini qamal qiladi. Beruniy asarni bunday nomlaydi: “Tahqiq mo lil hind min ma’qula maqbula fi-l-aql av marzula”. Bu asarning tarjimasi quyidagicha: “Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash”.

Beruniy bu asarni yozishga kirishishdan oldin Abu Fazl bilan hind xalqi orasida kezadi, har bir ma’lumotni ularning og‘zidan yozib oladi. Bu asar 1030-yili

yozib tugallanadi. Hatto Beruniy hindlarning qadimgi tili – sanskrit tilini ham maxsus o‘rganadi. Alloma bu kitobda Hindiston xalqi tarixining turli sohalarini o‘rganadi: aniq fanlari, falsafa, adabiyot, etnografiya, geografiyasi; uning qonunlari, urf-odatlari, dini, diniy rivoyatlari, hind yozuvining turlari, e’tiqod usullari haqida batafsil ma’lumotlar yozib qoldiradi.

Sen bilan mening, ey Abu Fazl, Hindistonga yurishimiz endi boshlanadi! – deb xitob qildi Abu Rayhon. – Bizlar hindlarning tafakkur olamiga sayr qilamiz. Boshimizga qilich kelsa ham to‘g‘ri so‘zlaymiz. Butlarga sig‘inishiga ne voqea sabab bo‘lganidan tortib, nima uchun ularning ilohlari ko‘p qo‘lli, hatto bir necha boshli qilib yasalganiga diqqat qaratamiz. Nima uchun bizlarni lol qoldirgan tabaqalanishlarning boisiga nazar tashlaymiz. Allohga qasamki, men bularning barchasini bilib olish va tekshirish shavqida yonmoqdaman [4;239].

Abu Rayhon Beruniy kashfiyotlari bilan o‘z hissasini qo‘shmagan fan sohasi bo‘lmasa kerak. Uning eng katta va qimmatli kashfiyotlaridan biri Yer sharining dumaloqligini aniqlaganligi va aynan shuning shar shaklidagi globusini yasaganligidir. Uning o‘zi yasagan Yer shari globusi garchi Xorazmga uyushtirilgan yurishlarda johil bosqinchilar tomonidan yo‘q etilgan bo‘lsa-da, namunasida yaratilgan globuslardan nafaqat geograflar, balki maktab o‘quvchilari ham o‘rinli foydalanamoqda.

Taniqli sharqshunos olim va professor Ashraf Ahmedov ham Beruniy haqida shunday deydi: “Abu Rayhon Beruniy yoshligidan matematika va astronomiyada mukammal ma’lumotlar egallab, 16 yoshidanoq mustaqil astronomik kuzatishlar olib bordi. 995-yil atrofida u turar-joylarning geografik koordinatalari va ular orasidagi masofalarni aniqlash maqsadida fan tarixida birinchi bo‘lib Yer globusini yasaydi” [1;5].

Adib Isajon Sultonning romanida Beruniyning kishilik siymosi quyidagicha tasvirlangan.

Abu Rayhon baland bo'yli, ko'zlari qiyiqqa biroz moyil, qoshlari yoysimon, gavdasi tekis va tik, peshanasi keng kishi edi. Yonoqlari xiyol turtib chiqqan, yuzi cho'zinchoq, burni to'g'ri, chap qoshining ustida nuqtadan xoli bor [4;326].

Doimo og'ir-bosiq, vazmin qadamlar bilan yurgan, sekin, ohista yurgan, tez yura olmasligiga sabab, uning tez-tez oyog'i og'rib turgan. Qarshisidagi inson bilan suhbat qilganda, suhbatdoshini diqqat bilan tinglar, uning gapini bo'lmasdi. Shundan keyin odob bilan o'zining mulohazasini suhbatdoshiga yetkizardi. o'ta to'g'riso'z va halol inson bo'lgan.

Rayhon va yo'ng'ichqa isini juda sevar, Rayhonning nomi Allohdan kelgan deya g'oyat e'zozlardi, bahor faslida beda gullagan onda dalalarni kezishni sevgan. Bedaning shohchasini sindirsangiz, ichidan ko'm-ko'k suvi sizib chiqadi. Beruniy aynan mana shu suvning xushbo'y isini yoqtirardi.

Tabiatning ne'matlari bo'lmish hayvonlar, qurt-qushlarga rahmdil edi, uyida ot-ulov saqlamagan. Agar kishilar ot yoki eshakni dalada omochga qo'shib, yer haydayotganini ko'rsa, "Minish uchun yaratilgan hayvonni boshqa yumushga majburlash insoniylik husniga xilof", deb aytgan. Umri davomida mol-dunyoga qiziqmagan. Bir kuni Abu Fazl bilan suhbatlashib o'tirganda, Abu Fazl Beruniyga shunday deydi:

Bir kuni unga yangi to'n olishi kerakligini aytdim. Abu Rayhon ariq yoqasida don-dun cho'qib yurgan bir qushni ko'rsatib dedi: "Qara, ey Abu Fazl! Ustida Alloh bergan to'ni bor shu qush yana bir to'n kiyaman deb urinadimi? Rizqini terib, qorni to'ygach, boshqa bir kunimga yarab qolar deb don-dun g'amlamaydimi? Sen, sho'ring qurg'ur Abu Rayhonni bir qushchalik bo'lolmaydi deb o'yladingmi?" [4;327]

Uning eng yoqtirgan duosi "Tangri muyassar aylasin" duosi edi.

Beruniy merosidan bir qancha namunalar keltirib o'tamiz:

1. Odamlar o'rgangan, odatlangan va ko'pchilikka ma'qul bo'lgan narsaga qarshilik ko'rsatma.
2. Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan afzal.
3. Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyildir.
4. Har bir insonning qadr-qiymati o'z ishini qoyil qilib bajarishida ko'rinadi.
5. Ilmni g'arazli manfaati uchun ishlatuvchi kishiga o'rgatgan ustoz uning oqibati uchun ham javobgar hisoblanadi.

Darhaqiqat, Beruniy har tomonlama mukammal, ideal shaxs bo'lgan, ilmning yuksak cho'qqilarini zabt etgan. Uning o'zi ta'kidlaganidek, "Menga kumush kerak emas! Menda eng katta boylik – bilim bor. Va aslida, menga nega boylik kerak? Men allaqachon boyman...Bilimlarga boyman" [8]

B.O.To'rayevning ushbu "Beruniy – insoniyatning buyuk mutafakkiri" asari ensiklopedist, ulug' vatandoshimiz tavalludining 1050 yilligi munosabati bilan yaratildi. Oradan shuncha vaqt o'tsa-da, bunday insonning xotirasi hech qachon yodimizdan, qalbimizdan o'chmaydi, u bugungi kunimiz uchun xizmat qilayotgan ko'plab fanlarning asoschisidir. Uning izlanishlari natijasida yuzaga kelgan har bir yangilik, ixtiro bugungi kunda ham, bundan keyin ham insoniyat uchun eng qimmat boyliklardan bo'lib qolishiga hech shubha qilmasa ham bo'ladi.

Beruniy hayoti davomida ko'plab qiyinchiliklar ko'rgan, ota-onasidan erta ayrilgan bo'lsada, uztozi va homiysi ibn Iroq yordamida va o'zidagi qobiliyat ortidan ko'plab ixtirolar qildi. Hech qachon ilm yo'lidan chekinmadi. Har qanday qiyinchilikni o'zining mustahkam irodasi bilan yengib o'ta oldi.

Yozuvchi Isajon Sultonning Beruniy haqida roman yozishiga bir qancha turtkilar sabab bo'lgan. Eng avvalo, tarixiy adabiyotga qiziqishi. Muallif 2021-yil "Alisher Navoiy" romanini yozib tugatganidan keyin, ancha qalami charxlanadi va 2023-yilda "Abu Rayhon Beruniy"dek muvaffaqiyatli romani vujudga keladi. Yana buning eng yaxshi tomonlaridan biri shundaki, mustaqillik davri ijodkoridan tarixiy romanni shunchaki kutmaslik kerak, undan ma'no izlash kerak. Darhaqiqat, asarda Beruniy timsolida ilm-fanga chanqoqlik, erkin fikrlilik, zamonaviy

jamiyatga oshnolik g'oyalari bugungi kun o'quvchilari uchun ham ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi.

Bugun chin ma'noda baralla aytishimiz mumkinki, "Beruniy – butun insoniyatning mutafakkiridir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov A.A. Beruniy asariga so'zboshi // Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. VII jild: Matematik va astronomik risolalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Беленский А.М. Очерк жизни и трудов Беруни, Собрание сведений для познания драгоценностей (минералогия). – Москва: Наука, 1963. – 273 с.
3. Семенов А.А. Ўрта асрнинг машхур олими // Беруний ўрта асрнинг машхур олими. – Тошкент: ФАН, 1950.
4. Sulton I. Abu Rayhon Beruniy. (tarixiy-biografik roman). – Toshkent: Innovatsion rivojlanish, 2023. – 340 b.
5. Тўраев Б. Беруний - инсониятнинг буюк мутафаккири. – Тошкент: Fan ziyosi, 2023. – 152 б.
6. То'rayev B. Abu Rayhon Beruniy. – Тошкент: Tafakkur, 2015.
7. Гуломов Я. Беруний Амударё оқимининг тарихий гидрографияси ҳақида. – Тошкент: Фан, 1960.
8. <https://uzbekistan.travel>